ANDIJON VILOYATI PAXTAOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 28-noyabr | 586-1-25-Q/24 | Paxtaobod tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining 2025 yil uchun band qilib qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga, O'zbekiston Respublikasi "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasi, "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2025-yil uchun ish o'rnilarini band qilib qo'yish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni eng kam miqdorini belgilash bo'yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, 2025-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro'yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2-ilovaga muvofiq xodimlarning ro'yhati bo'yicha o'rtacha sonidan 4143 nafarini tashkil etadigan miqdorida (291 ta), shu jumladan:

o'n to'rt yoshgacha bolalari va bolalarida nogironligi bo'lgan yolg'iz ota, yolg'iz ona va ko'p bolali ota-onalar uchun (56 ta);

ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlar uchun (74 ta);

muddatli harbiy xizmatdan bo′shatilganlar uchun (14 ta);

nogironligi bo′lgan shaxslar uchun (124 nafar yuqorida ko′rsatilgan ish o′rinlarini bitiruvchilar uchun band etib qo′yilsin);

tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun (4 ta);

jazoni o′tash muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o′tayotgan yoki sud qaroriga ko′ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko′rilgan shaxslar uchun (11 ta);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosidan jabrlanganlar uchun (2 ta) miqdorida ish o′rinlari zahirasini belgilaydi.

Atrofdagilar uchun xavf tug′dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun (1 ta);

Oilaviy (maishiy) zo′rovonlik natijasida javbrlanganlar (5 ta).

2. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o′rinlari xodimlar tomonidan o′zlarining mehnat majburiyatlarini to′siqlarsiz bajarilishini ta′minlaydigan sanitariya-gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo′lishi kerak, shu jumladan:

yolg′iz ota, yolg′iz ona va 14 yoshgacha nogironligi bo′lgan bolalari bor ko′p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo′yicha vazifalarni uyg′unlashtirish imkonini beradigan, o′zgaruvchan ish jadvaliga ega bo′lgan ish o′rinlari;

ta′lim muassasalalarini tugatgan yoshlar uchun – ularning kasb bo′yicha tayyorgarligiga muvofiq bo′lgan ish o′rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo′shatilgan shaxslar uchun – ularning kasb bo′yicha tayyorgarligiga muvofiq bo′lgan ish o′rinlari;

nogironligi bo′lgan shaxslar uchun – mehnat shartlari bo′yicha attestatsiyadan o′tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to′sqinliksiz bajarish imkonini (sog′lig′ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko′rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o′rinlari;

tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun – maxsus malakani talab qilmaydigan ish o′rinlari;

jazoni o′tash muassasalaridan bo′shatilgan, jazoni o′tayotgan yoki sud qaroriga ko′ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko′rilgan shaxslar, odam savdosidan jabrlanganlar uchun – ularning kasb bo′yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o′rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo′lmagan shaxslar uchun esa – maxsus malakani talab qilmaydigan ish o′rinlari.

3. Ish o′rinlari band qilib qo′yiladigan kasblar va lavozimlar:

muhandislar, iqtisodchilar, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o′qituvchi, tarozibon, elektr va yuk tashuvchi motosikl haydovchisi, tashuvchi, farrosh, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, elektron hisoblash mashina operatori, ishchi, bog′bon, qorovul.

4. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

O′zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo′yish tartibi to′g′risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko′rsatilgan ish o′rinlari tashkil etilishini ta′minlash;

yil boshlangunga qadar o′n kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo′yilgan ish o′rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmida ish o′rinlari band qilib qo′yilishini va tayyor bo′lishini ta′minlash, ushbu to′g′risida tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi ga yil boshlangunga qadar axborot berish;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o′rinlarining qolgan qismini band qilib qo′yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta′minlasin, bu to′g′rida tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi ga birinchi chorak tugagandan keyin o′n kundan kechikmay axborot berish;

tashkilotlar har oyda tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi ga yuqorida ko′rsatilgan toifadagi shaxslarning ishga joylashtirilishi to′g′risida ushbu nizomga 5-ilovaga muvofiq shakl bo′yicha axborot taqdim etish vazifalari yuklatilsin;

band qilib qo′yilgan ish o′rinlarining belgilangan soni hisobiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarining tayyorligi to′g′risidagi axborotni tashkilot tomonidan taqdim etilmasligi va mazkur ish o′rinlarini tayyor emasligi tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi tomonidan tuman hokimining qaror talablari bajarmaganligi sifatida qarashi lozimligi qayd etilsin.

5. Tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi (N.Xolmirzayev)ga O′zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 may kungi “O′zbekiston Respublikasi Bandlikka ko′maklashish davlat jamg′armasi mablag′lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to′g′risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-son buyrug′i bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida xaq to′lab berish uchun subsidiya ajratilsin.

6. O′zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo′yish tartibi to′g′risida”gi Nizomning 21-bandiga muvofiq qaror talablarini bajarmagan tashkilotning mansabdor shaxslariga nisbatan ma′muriy javobgarlik belgilanishi ko′rsatib o′tilsin.

7. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo′yiladigan ish o′rinlarini tuman hokimligi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o′rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag′larning bir qismini tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi jamg′armasi mablag′lari hisobidan qoplash huquqiga egadir.

8. Tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi (N.Xolmirzayev) besh kun muddatda ushbu qarorni 1-bandida ko′rsatilgan tashkilot rahbarlari e′tiboriga yetkazilishini ta′minlasin.

9. Ushbu qaror 2025 yil 1 yanvardan e′tiboran kuchga kiradi.

10. Tuman hokimligi matbuot xizmati (J.Sarimsoqov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

11. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Paxtaobod tumani hokimining 2023-yil 20-dekabrdagi 303-1-25-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o′rinbosari I.Akramov va tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi boshlig`i N.Xolmirzayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Babayev**

Paxtaobod tuman hokimining
2024-yil 28-noyabrdagi
586-1-25-Q/24-son qaroriga
1-ilova


Paxtaobod tumani bo‘yicha 2025 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha
MANZILLI JADVAL

№	Tumanlar nomi	Topshiriq belgilangan korxona nomi	Korxonani INN raqami	korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:								
						14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta‘lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta‘lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun	Oilaviy (maishiy) zo‘rovonlik natijasida javbrlanganlar
	JAMI			**4143**	**291**	**56**	**74**	**14**	**124**	**4**	**11**	**2**	**1**	**5**
1	Paxtaobod tuman	Paxtaobod tuman tibbiyot	200294967	1 850	130	30	31	6	56		6			1

		birlashmasi												
2	Paxtaobod tuman	Paxtaobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	204432768	160	11	1	2	1	5	1	1			
3	Paxtaobod tuman	Paxtaobod YFU korxonasi	200295300	41	3	1	1		1					
4	Paxtaobod tuman	1-сон касб хунар мактаби	206798754	57	4	1	1		2					
5	Paxtaobod tuman	2-сон касб хунар мактаби	207018567	60	4		2		2					
6	Paxtaobod tuman	Пахтаобод туман ДСЭМ	200294999	75	5	1	1	1	2					
7	Paxtaobod tuman	1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203332419	80	6	1	1	1	2					1
8	Paxtaobod tuman	4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203332465	90	6	1	1		3		1			
9	Paxtaobod tuman	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203332513	68	5	1	1	1	2					
10	Paxtaobod tuman	10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203332458	85	5	1	1		3					
11	Paxtaobod tuman	14- umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204997215	64	5		2		2		1			
12	Paxtaobod tuman	69-ИДУМ	203332480	78	6		1	1	2	1		1		
13	Paxtaobod tuman	19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203332520	65	5	1	1	1	2					

14	Paxtaobod tuman	24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204997279	48	3		1		1		1			
15	Paxtaobod tuman	29-umumiy urta ta’lim maktabi	204997302	38	3	1	1		1					
16	Paxtaobod tuman	31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204997326	78	5	1	2		2					
17	Paxtaobod tuman	33-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204997341	62	4		1		2					1
18	Paxtaobod tuman	34-umumiy urta ta’lim maktabi		68	5	1	1		2				1	
19	Paxtaobod tuman	39-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204997397	93	6		1		3		1			1
20	Paxtaobod tuman	40-umumiy urta ta’lim maktabi	204997405	46	3		1		1	1				
21	Paxtaobod tuman	41-umumiy urta ta’lim maktabi	203332505	86	6	1	2		3					
22	Paxtaobod tuman	46-umumiy urta ta’lim maktabi	204997647	48	3	1	1		1					
23	Paxtaobod tuman	21- sonli DIMI	201289124	73	5	1	2		2					
24	Paxtaobod tuman	2-son sport maktabi	308991653	92	6	1	1		3			1		
25	Paxtaobod tuman	25-son bolalar musiqa maktabi	206979891	81	6	1	2	1	2					
26	Paxtaobod tuman	3-maktabgacha ta’lim muassasasi	207011062	70	5	1	2		2					

27	Paxtaobod tuman	4-maktabgacha ta’lim muassasasi	207011079	45	3	1	1		1					
28	Paxtaobod tuman	6-maktabgacha ta’lim muassasasi	207029158	42	3	1	1		1					
29	Paxtaobod tuman	7-maktabgacha ta’lim muassasasi	207029141	65	4	1	1		2					
30	Paxtaobod tuman	10-maktabgacha ta’lim muassasasi	207011086	52	4		1		2	1				
31	Paxtaobod tuman	14-maktabgacha ta’lim muassasasi	207029180	65	5		1	1	2					1
32	Paxtaobod tuman	15-maktabgacha ta’lim muassasasi	207029197	39	3	1	1		1					
33	Paxtaobod tuman	24-maktabgacha ta’lim muassasasi	207029237	45	3	1	1		1					
34	Paxtaobod tuman	26-maktabgacha ta’lim muassasasi	207011165	48	3	1	1		1					
35	Paxtaobod tuman	28-maktabgacha ta’lim muassasasi	207029244	40	3	1	1		1					
36	Paxtaobod tuman	31-maktabgacha ta’lim muassasasi	305621402	46	3	1	1		1					



Paxtaobod tuman hokimining
2024-yil 28-noyabrdagi
586-1-25-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni eng kam miqdorini belgilash bo'yicha komissiya

TARKIBI

I.Akramov	- Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, *komissiya rahbari*
D.Sattarov	- Tuman hokimining o'rinbosari, *komissiya rahbari o'rinbosari*
R.Ismailova	- Tuman hokimining o'rinbosari, *komissiya rahbari o'rinbosari*
N.Xolmirzayev	- Tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo`limi boshlig`i
B.Sobirov	- Tuman davlat soliq inspektsiyasi boshlig'i
A.O'smonov	- Tuman MTT boshlig`i
J.Faxriddinov	- Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig`i
B.Nozimov	- Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i
A.Raxmonova	- Tuman madaniyat bo'limi boshlig'i
B.Arabboyev	- Tuman statistika bo'limi boshlig'i
R.Rustamov	- Yoshlar agentligi tuman bo'limi boshlig'i
Q.Qiyomiddinov	- OATB "Agrobank" Paxtaobod filiali boshqaruvchisi
M.Ergashev	- OATB "Mikrokreditbank" Paxtaobod filiali boshqaruvchisi

Q.Ikromov	- Davlat tijorat Xalq bank Paxtaobod filiali boshqaruvchisi